
MAKTABLARDA ISITISH TIZIMI UZLUKSIZLIGI TA'MINLANMOQDA

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy soha ob'ektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, tumandagi ijtimoiy sohalarda istish tizimini yaxshilash ishlari davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilmoqda.

Toshloq tumanidagi barcha umumta'lim maktablarini qish mavsumida issiqlik tizimini barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida "Rayyona biznes ta'mir" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tadbirkor tomonidan shu kunga qadar 72 ta ijtimoiy soha ob'yektiga 157 ta isitish qozonlari o'rnatildi hamda isitish tizimi to'liq yangilandi.

Tumandagi 4- hamda 5-umumta'lim maktablarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida isitish tizimlari to'liq ta'mirlanib, mavjud isitish qozonlari yangi zamonaviylariga almashtirildi. Ayni kunlarda tizim ko'mir mahsuloti yordamida isitilmoqda. Maktabdagi sinfxonalarda issiqlik bir me'yorda saqlab turilibdi.

Korxonamiz tomonidan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maktablardagi isitish tizimlari doimiy ravishda nazoratga olingan, - deydi "Rayyona biznes ta'mir" MCHJ rahbari Mirqodir Boboqulov. -O'quvchilar maktabga kelganida sinfxonalarni issiq xolatda saqlab turish maqsadida isitish qozonxonalari to'liq ishlamoqda. Xozirda sinfxonlarda havo harorati 20-22 darajani ko'rsatmoqda. Yoshlarmizni bilim olishlari uchun yetarli sharoitlar yaratib berilmoqda.

2024-01-18 14:35:47